


Yangi O'zbekiston: milliy taraqqiyot va xalqaro integratsiya

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligi arafasida O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan 2021-yil 23-avgust kuni "Yangi O'zbekiston: milliy taraqqiyot va xalqaro integratsiya" mavzusida respublika onlayn ilmiy anjumani o'tkazildi.



Tadbirda Fanlar akademiyasidan vitse-prezident, professor Bahrom Abduhalimov, Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Shavkat Rahmatullayev, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti bo'lim mudiri, tarix fanlari nomzodi Askar Djumashev, O'zbekiston Xalqaro islam akademiyasidan kafedra mudiri, siyosiy fanlar doktori Zohidillo Munavvarov, Ichki ishlar vazirligi akademiyasidan kafedra boshlig'i, professor Karine Djavakova o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Ma'ruzalarning asosiy qismi har bir sohada rivojlanayotgan xalqaro hamkorlik, dunyo hamjamiyatiga integratsiya jarayonlari faollashishi masalalariga bag'ishlandi. Tadbir Markaz tomonidan 2021-yil davomida o'tkaziladigan "Yangi O'zbekiston" turkumidan onlayn anjumanlarni boshlab berishi ta'kidlandi.